

TRANSPORT VOSITALARI EGALARINING FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIGINI SUG'URTA QILISH

Xusanova Marjona G'anisher qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti talabasi

xusanovamarjona17@gmail.com

Annotasiya. Maqola transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini sug'urta qilish sohasidagi munosabatlar, soha bo'yicha amaldagi qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti muammolariga bag'ishlangan. Shu sababli, transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini sug'urta qilish sohasi munosabatlarini tartibga solishga oid asosiy normativ-huquqiy hujjatlar – O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda xorijiy mamlakatlar qonunchiligi normalarining o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilingan. Bundan tashqari, transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini sug'urta qilish sohasida bugungi kunda zaruratga aylanayotgan takliflar ham keltirib o'tilgan. Shuningdek, maqolada ushbu sug'urta turining obyekti, sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchi o'rtasidagi huquqiy munosabatlar va ular o'rtasidagi bog'liqlik ochib berilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta, majburiy sug'urta, sug'urta obyekti, sug'urta subyekti, sug'urtalovchi, sug'urta qildiruvchi.

CIVIL LIABILITY INSURANCE OF VEHICLE OWNERS

Khusanova Marjona Ganisherovna

Student of Private law faculty of the
Tashkent State University of Law

xusanovamarjona17@gmail.com

Abstract. The article is devoted to relations in the field of insurance of civil liability of vehicle owners, current legislation in the field and problems of law enforcement practice. Therefore, similar and different aspects of the main legal documents - the Civil Code of the Republic of Uzbekistan and the legislation of foreign countries were analyzed. In addition, proposals that are becoming a necessity today in the field of civil-legal liability insurance of vehicle owners have also been presented. Also, the object of this type of insurance, the legal relations between the insured and the insured and the relationship between them are revealed in the article.

Key words: insurance, compulsory insurance, object of insurance, subject of insurance, insurer, insured.

Bugungi kunda bozor munosabatlari sharoitida yuridik va jismoniy shaxslarning uchinchi shaxslar manfaatiga zarar yetkazish xavfi kuchaygan. Bu xavfning ro'y berishi natijasida yetkazilgan zararni qoplash yuzasidan zarar yetkazgan shaxslarning javobgarligini sug'urta qilish mamlakatimizda o'z rivojini topmoqda. Ana shunday javobgarlikni sug'urta qilishning keng tarqalgan turlaridan biri – transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urtalashdir. Ma'lumki transport yuqori xavfni keltirib chiqaruvchi manbalardan biri hisoblanadi. Transport haydovchisi transport vositasini boshqarish jarayonida uchinchi shaxslarning muayyan manfaatlariga, sog'lig'iga, mol-mulkiga zarar yetkazishi mumkin. Transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini sug'urta qilish tushunchasini tahlil qilishdan avval sug'urta tushunchasiga ta'rif berib olamiz. Sug'urta shartnomasiga binoan bir taraf (sug'urta qildiruvchi) yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urtalovchi tomonidan sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lashidir. Bundan ko'rinadiki, transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini sug'urta qilishda sug'urtalovchi tashkilot sug'urta hodisasi sodir bo'lganda masalan yo'l transport hodisasi natijasida jabrlanuvchilarga ularning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zararining o'rni shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta puli doirasida qoplash majburiyatini tushunishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 914-moddasida ham sug'urta tushunchasiga ta'rif berilgan, bundan tashqari, sug'urtaning ixtiyoriy, majburiy va davlat majburiy sug'urtasi shakllari mavjudligi ko'rsatilgan. I.B.Zokirovning "Fuqarolik huquqi" nomli darsligida sug'urta shartnomasi

shakllari bo'yicha shunday ta'rif berilgan: sug'urta shartnomasi ixtiyoriy, majburiy, majburiy davlat sug'urtasiga bo'linadi. Transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini sug'urta qilish sug'urta shakllarining qaysi guruhiga mansub? Ushbu savolga Fuqarolik kodeksi va "Fuqarolik huquqi" darsligidan javob olishimiz mumkin. Ixtiyoriy sug'urtaning shartlari tomonlarning kelishuviga asosan belgilanadi. Sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchining huquqlari hamda majburiyatlari, shuningdek, har bir sug'urta turning aniq shartlari tegishli sug'urta shartnomalari bilan belgilanadi. Majburiy sug'urta alohida tartibga solinib, qonunda ko'rsatilgan shaxslarga sug'urta qiluvchilar sifatida boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkini yohud o'zining boshqa shaxslar oldidagi fuqarolik javobgarligini o'z hisobidan sug'urta qilish majburiy sug'urta deb yuritiladi. Davlat majburiy sug'urtasi esa fuqarolar va davlatning manfaatlarini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan sug'urta qildiriladi va bu shartnoma bo'yicha sug'urta badallarini to'lash davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. Masalan: "Prokuratura to'g'risida"gi qonunga ko'ra prokuratura xodimlari, "Sudlar to'g'risida"gi qonunga ko'ra sudyalari va qonun bilan belgilangan boshqa xodimlarni sug'urtalash davlat majburiy sug'urta qilish shartnomalari turiga kiradi. Ushbu ta'riflardan ko'rinadiki transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini sug'urta qilish majburiy sug'urta qilish shakliga kirar ekan.

Shartnomalar muayyan muqobil ijroning mavjudligiga qarab haq baravariga va tekinga tuziladigan shartnomalarga bo'linadi. Yuqoridagi tariflardan bilishimiz mumkinki, transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini majburiy sug'urta qilish haq evaziga tuziladigan shartnomalar sirasiga kiradi, sababi bunda sug'urta qildiruvchi

sug'urta mukofotini to'laydi, sug'urtalovchi esa sug'urta hodisasi ro'y berishi bilan sug'urta pulini to'laydi.

Shartnoma tuzilish paytiga va mazmuniga qarab real va konsensual shartnomalarga bo'linadi. Transport vositasi egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini majburiy sug'urta qilish konsensual shartnomalar guruhida mansubdir. Sababi konsensual shartnomalarda huquq va majburiyatlar taraflarning kelishuvlari asosida qonun talab qilgan shaklda rasmiylashtirilgani zahoti tuzilgan hisoblanadi.

Shartnomalar unda ishtirok etayotgan taraflar o'rtasida huquq va majburiyatlarning o'zaro taqsimlanishiga qarab bir tomonlama, ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalarga bo'linishi bizga ma'lum. Transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini majburiy sug'urta qilish ikki tomonlama shartnoma hisoblanadi. Chunki sug'urta qildiruvchi ham sug'urtalovchi ham o'z zimmasiga ham huquq, ham majburiyatlarni oladi. Sug'urtalovchi sug'urta badalini talab qilib olish huquqiga ega bo'lishi bilan bir qatorda sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta tovonini to'lash majburiyatini oladi. Sug'urta qildiruvchining esa sug'urta badalini to'lash majburiyati, sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta tovonini talab qilib olish huquqi mavjud. Ammo bu fikrning istisnosi mavjudligini quyida ko'rishimiz mumkin. Unga ko'ra sug'urta shartnomasi tuzilishi jarayonida sug'urta badalining bir yo'la to'lanishi bilan sug'urta qildiruvchida majburiyat qolmasligini nazarda tutib uni bir tomonlama shartnomalar turkumiga mansub bo'ladi deb hisoblaydi Braginskiy M.I va Vitryanskiy V.V . Ushbu yondashuvlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkin, sug'urta shartnomasi ikkala tarafga ham huquq va majburiyatlar yuklaydigan shartnoma. Sug'urta qildiruvchi sug'urta badalini bir yo'la to'laydimi yoki bo'lib-bo'lib to'laydimi u ushbu tovonni to'lash majburiyatini zimmasiga olgan holda shartnoma ishtirokchisi sifatida

shartnomada qatnashayabdi. Bundan tashqari, sug'urta qildiruvchining sug'urta tovonini to'lashdan boshqa majburiyatlari ham mavjud masalan sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urta qildiruvchi o'ziga ma'lum bo'lib, sug'urta hodisasi yuz berish ehtimolini va uning yuz berishi tufayli kutilajak zarar miqdorini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni sug'urtalovchiga xabar qilish majburiyatini oladi (Fuqarolik kodeksi 931-moddasi birinchi qismi). Shu sababli ushbu shartnomani ikki tomonlama shartnomalar sirasiga kiritish to'g'ri yechim deb o'ylayman.

Transport vositasi egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini majburiy sug'urta qilishda subyekt sifatida sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchilar ishtirok etadi. Ushbu sug'urta turining obyektini transport vositasidan foydalanishda transport vositalari egalarining jabrlanuvchilar hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash bo'yicha fuqarolik javobgarligi qonunchilikka muvofiq yuzaga kelishi bilan bog'liq bo'lgan mulkiy manfaatlarini majburiy sug'urta obyektidir. Mazkur shartnomaning shakli yozma shaklda bo'lib, bu talabga rioya etmaslik shartnomaning haqiqiy emasligiga olib keladi. Bu haqida Fuqarolik kodeksining 927-moddasida ham belgilab o'tilgan.

Avtomobilida noto'g'ri harakatlanish, yo'l harakati qoidalariga rioya qilmaslik, avtomobilni o'z vaqtida texnik ko'rikdan o'tkazmaslik va boshqa shunga o'xshash sabablar natijasida fuqarolar o'zlari va atrofdagilarga ham turli hil ziyonlar yetkazishi mumkin. Yurtimizda transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligi majburiy sug'urta qilish Fuqarolik kodeksi, 2008-yil 21-fevralda qabul qilingan "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, 2008-yil 24-iyunda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 141-sonli qarori, 2015-yil 26-martda qabul qilingan

“Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi qonunlari orqali tartibga solinmoqda.

Transport vositasi egalarining fuqarolik huquqiy javobgarligini majburiy sug’urta qilish shartnomasi sug’urtalovchi tomonidan sug’urta polisini va maxsus davlat belgisini sug’urtalovchiga taqdim etish yo’li bilan tuziladi. Hisoblangan sug’urta mukofoti to’langanidan keyin sug’urta polisi va maxsus davlat belgisi taqdim etiladi. Maxsus davlat belgisi egasining fuqarolik javobgarligi sug’urtalangan transport vositasining old tomonining yuqori o’ng burchagiga joylashtiriladi.

“Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish to’g’risida”gi qonunning 6-moddasida transport vositalari egalari transport vositalaridan foydalanishda o’zga shaxslarning hayoti, sog’lig’i va mol-mulkiga zarar yetkazganlik uchun o’z fuqarolik javobgarligini qonunchilikda belgilangan tartibda va shartlarda sug’urtalashi shartligi belgilab qo’yilgan. Mazkur qonunning 8-moddasida sug’urta hodisasi hisoblanmaydigan fuqarolik javobgarligining yuzaga kelish asoslari keltirib o’tilgan.

Yurtimizda transport vositalari egalari o’z fuqarolik-huquqiy javobgarligini bir yil muddatga sug’urta qilishadi. Chet davlatida ro’yxatdan o’tkazilgan O’zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha foydalanilayotgan transport vositalari o’n besh kundan kam bo’lmagan muddatga majburiy sug’urta qilinadi.

Mamlakatimizda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilishda ko’plab o’ziga xos jihatlar mavjud. Ulardan biri sug’urta mukofotlari bo’yicha siylovlar olish huquqiga ega bo’lgan shaxslar doirasining belgilanganidir. Mazkur shaxslarga sug’urta mukofoti to’lashda sug’urta mukofoti summasining 50 foiz miqdorida siylov beriladi, qolgan 50 foiz transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta

qilish bo'ycha to'lovlarni kafolatlash jamg'armasi tomonidan sug'urtalovchining sug'urta mukofotiga doir siylovni kompensatsiya qilish masalasi yuzasidan yozma ravishda murojaati olingan kundan e'tiboran 15 kalendar kunida qoplanadi. Qonunchiligimizdagi bu qism ko'plab chet davlatlarida mavjud emas va bu qonunchiligimizning boshqa davlatlar qonunchiligidan farq qilib turuvchi jihati hisoblanadi.

Qonunchiligimizda transport vositalari egalari o'zlariga tegishli transport vositasidan cheklangan tarzda foydalanganda masalan mavsumiy yumushlarini amalga oshirish uchun (olti yoki undan ko'proq oy mobaynida) transport vositalaridan foydalanishlari mumkin va foydalanish cheklangan foydalanish deb ataladi. Shu munosabat bilan ham transport vositalari egalari o'z fuqarolik huquqiy javobgarliklarini majburiy sug'urta qilishlari mumkin. Ushbu normani ko'plab Yevropa davlatlari xususan, Germaniya, Fransiya qonunchiligida ham uchratishimiz mumkin.

Transport vositalari egalarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasida sug'urta qildiruvchi ham sug'urtalovchi ham muayyan majburiyatlarga ega. Transport vositalari egalari zimmasiga yuqorida keltirilgan majburiyatlardan tashqari quyidagi majburiyatlar ham yuklanadi: transport vositalarini ro'yxatdan o'tkazishda, qayta ro'yxatdan o'tkazishda, ularning majburiy texnik ko'rigini tashkil etish, yo'l harakati qoidalariga va yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etish va shu kabi boshqa majburiyatlar yuklangan. Bu majburiyatlarning bajarilishi ustidan nazorat yo'l harakati xavfsizlik xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Chet davlatida ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi hududida vaqtinchalik foydalanilayotgan transport vositalarining egalari tomonidan majburiy sug'urta bo'ycha qonunchiligimizda belgilangan majburiyatlarning bajarilishi ustidan nazarotni

bojxona organlari va davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati amalga oshiradi. Bu borada ham to'g'ri yo'l tutilgan sababi Respublika hududida diplomatiya vakolatxonalari xodimlari ularning oila a'zolari egallab turgan transport vositalari ham harakatlanadi. Ular imtiyozli huquqqa ega ekanliklarini hisobga olgan holda ularning transport vosidasidan foydalanishdagi fuqarolik-huquqiy javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha majburiyatlarining bajarilishini nazorat qilish yo'l harakati xavfsizligi xizmati bilan bir qatorda bojxona tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

Yuqorida keltirilgan qonunlarda sug'urta hodisalari bo'yicha zararning o'rnini qoplash, kompensatsiya to'lovlari, majburiy sug'urta bo'yicha to'lovlarni kafolatlash masalalari ham keltirib o'tilgan. Qonunga ko'ra sug'urta mablag'i 40 mln so'm ekvivalenti miqdorida belgilangan bo'lib, jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta tovonining miqdori sug'urta pulining 65 foizidan oshmasligi, jabrlanuvchining mol-mulkiga zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta to'lovi sug'urta pulining 35 foizidan oshmasligi belgilab qo'yilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda transport vositalari egalarining fuqarolik huquqiy javobgarligini majburiy sug'urta qilish borasida ko'plab islohatlar amalga oshirilmoqda. Masalan Prezidentimizning «Byurokratik to'siqlarni yanada qisqartirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga ko'ra Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 291-moddasiga o'zgartirishi kiritish taklifi berilgan edi. Senat o'zgartirishni ma'qulladi. Unga ko'ra, qonun kuchga kiringach, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisi yonida bo'lmagan haydovchilar transport vositalarini boshqarganda ularning avtotransport vositalarini ushlab turish (jarima maydonchasiga qo'yish) tartibi

bekor qilinadi. Fuqarolarning sug'urta sohasidagi ko'plab muammolariga sug'urta tashkilotlari tomonidan huquqiy yordamlar ko'rsatilmoqda. Ammo sug'urta juda keng qamrovli soha hisoblanadi va juda ko'p normativ-huquqiy hujjatlarni o'z ichiga oladi. Ularni qidirib topish va qo'llash fuqarolarga qiyinchilik tug'dirishi mumkin, Shu sababli sug'urta kodeksini ishlab chiqish zarur hisoblanadi, bu huquq sohasi vakillariga ham, fuqarolarga ham ko'plab yengilliklar yaratar edi.

Yo'l-transport hodisalari zamonaviy jamiyatning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolaridan biridir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyoda yo'l-transport hodisalari natijasida 1,2 million kishi halok bo'ladi va 50 million kishi jarohat oladi. Prognozlarga ko'ra, agar baxtsiz hodisalar darajasini pasaytirish choralari ko'rilmasa, keyingi 20 yil ichida bu ko'rsatkichlarning o'sishi kamida 65% ni tashkil qiladi. Bunday sharoitda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish institutini rivojlantirish yo'l-transport hodisalari natijasida yetkazilgan zararning o'rnini qoplash muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu aholini yo'l-transport hodisalaridan himoya qilishning va ularning oqibatlarini yengillashtirishga yordam beradi. Rossiyada ham transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urtalash majburiy sug'urtalash shaklida amalga oshiriladi. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash munosabati Rossiyada ko'plab qonunlar bilan tartibga solinadi. Bu sohadagi bosh va asosiy qonun OSAGO (обязательное страхование автогражданской ответственности). Ushbu qonun Rossiya Federatsiyasi Hukumati tomonidan 2002-yil 25-sentabrdagi 1361r son qarori bilan tasdiqlangan. Mazkur qonunda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashning asosiy tamoyillari belgilangan. Unga ko'ra: jabrlanuvchilarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zararni ushbu

Federal qonun bilan belgilangan doirada qoplash kafolati; transport vositalari egalari tomonidan universallik va fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish; Rossiya Federatsiyasi hududida egalari ushbu Federal qonun bilan belgilangan fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish majburiyatini bajarmagan transport vositalaridan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi; transport vositalari egalarning yo'l harakati xavfsizligini oshirishdan iqtisodiy manfaatdorligidan iboratdir. Avtotransport vositalari egalari ushbu Federal qonunda belgilangan shartlarda va tartibda va unga muvofiq boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mulkiga zarar etkazish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan fuqarolik javobgarligi xavfini sug'urta qilishlari shart. Fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish majburiyati Rossiya Federatsiyasi hududida foydalaniladigan barcha transport vositalarining egalari nisbatan qo'llaniladi, Xorijiy davlatlarda ro'yxatdan o'tgan va Rossiya Federatsiyasi hududida vaqtincha foydalaniladigan transport vositalarining egalari bunday transport vositalaridan vaqtincha foydalanishning butun davri uchun, lekin kamida 5 kun davomida majburiy sug'urta shartnomalarini tuzadilar. Qonunning mazkur qismlarini bizning qonunchiligimizdan farqi muddatda namoyon bo'ladi (O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida mazkur muddan 15 kunni tashkil qiladi). Qonunda yetkazilgan zararlarni qoplash masalasiga alohida bob ajratilgan bo'lib hayotga, sog'liqqa, mulkka yetkazilgan zararlarning miqdori ham ko'rsatilgan. Ushbu Federal qonunning jabrlanuvchilarga taalluqli qoidalari boquvchisining o'limi natijasida zarar ko'rgan shaxslarga, jabrlanuvchilarning merosxo'rlariga va fuqarolik qonunchiligiga muvofiq zararni qoplash huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxslarga nisbatan ham qo'llanilishi belgilangan. Ushbu qonun bilan O'zbekiston Respublikasining 155-sonli qonunida transport vositalari egalarning fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish majburiyati qaysi transport vositalariga nisbatan tatbiq etilmasligi, sug'urta hodisasi hisoblanmaydigan

fuqarolik javobgarligining yuzaga kelish masalalari va majburiy sug'urta shartnomasining amal qilish muddati ham aynan o'xshashdir. Yo'l-transport hodisasi to'g'risidagi hujjatlarni rasmiylashtirish sug'urtalovchi yoki yo'l-transport hodisasi ishtirokchisining iltimosiga binoan kelgan sug'urtalovchining vakili ishtirokida amalga oshirilishi mumkin. Ushbu tartib Yurtimiz qonunchiligida ham mavjud (O'RQ 155-son). Rossiya va O'zbekistonning transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash qonunchiligi deyarli bir xil. Faqatgina muddatlar, sug'urta to'voni miqdorlari va sug'urta tashkilotlarining faoliyatida ayrim farqlar mavjud.

Yevroda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urtalash o'ziga xos jihatlarga ega. Ushbu sohaning o'ziga xos jihatlari Fransiya misolida tahlil qilamiz. Dunyo mamlakatlari fuqarolik qonunchiligini kodifikatsiyalashda asosiy o'rin egallovchi 1804-yilda qabul qilingan Fransiya fuqarolik kodeksi muhim o'rin egallaydi va institutsiyaviy deb nomlanadi. Fransiyada daulistik tizim mavjud, ya'ni fuqarolik va savdo kodekslari qabul qilingan. Shu bilan birga Intellektual mulk kodeksi va Sug'urta kodeksi ham amal qiladi. Fransiya huquq tizimining o'ziga xos jihati ham shunda. Bizning huquq tizimida yuqorida keltirilgan kodekslarning barchasi Fuqarolik kodeksiga jamlangan, Fransiyada esa buning aksi. Fransiyaning Sug'urta kodeksiga binoan Fransiyada barcha quruqlikdagi avtotransport vositalari, shu jumladan avtomobillar, mototsikllar, skuterlar va boshqa transport vositalari, jumladan, traktorlar, o'roq mashinalari va kvadrosikllar sug'urta qilinishi kerak. Foydalanilmayotgan bo'lsa ham, barcha transport vositalari uchun sug'urta talab qilinadi. Sug'urtalanmagan transport vositasini boshqarish uchun 3750 evro miqdorida jarima solinadi. Xususiy yerga doimiy ravishda o'rnatiladigan karvonlar avtotransport vositalarini sug'urtalashga shart emas. Bundan tashqari, avtotransport vositalariga nisbatan fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta

qilish to'g'risidagi Evropa konvensiyasi ham qabul qilingan. Frantsiyada to'liq vaqtda yashamaydiganlar, lekin tashrifi davomida Frantsiyada haydash uchun Buyuk Britaniya yoki Evropa Ittifoqida ro'yxatdan o'tgan avtomobillardan foydalanishda fransuz sug'urtasini olishning hojati yo'q. Biroq, bunda avtomobil konvensiyada keltirilgan shartlar asosida qonuniy ravishda sug'urtalangan bo'lishi kerak va Frantsiyada haydash paytida sug'urta ma'lumotlarini haydovchilar o'z yonlarida olib yurishlari shart. Bu jihat ham bizning qonunchiligimizdan farq qiluvchi jihatlardan biridir. Bundan tashqari 2021-yilning birinchi iyulida Fransiya avtomatlashtirilgan (elektron) avtomobillar uchun kod de la marshrutini yangilagan birinchi Yevropa davlatidir. Bu shuni anglatadiki, bugungi kunda avtomatlashtirilgan avtomobillardan foydalanish ommalashmoqda. Yo'l transport hodisasi sodir bo'lganda hodisaning kelib chiqishida haydovchi yoki elektron avtomobilning aybi bilan sodir bo'lgan yoki bo'lmagani kabi masalalar ushbu qonun doirasida hal qilinadi. Ushbu tizim hali ko'plab mamlakatlarda mavjud emas, shu jumladan yurtimizda ham.

Adabiyotlar/References

1. “Fuqarolik huquqi”. Darslik. - Toshkent: Adolat, 2007.- 521-bet
2. Брагинский М.И. Витрянский В.В. Договорный право.- Москва.: 2002.-стр 801-813
3. Иброхимов, А. А. Ў. (2021). КОРПОРАЦИЯНИ БОШҚАРИШДА ФИДУЦИАР МАЖБУРИЯТЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИАТЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 841-853.
4. В.Бакунов. Страпховое право. Южно Сахалинск.:2011
5. Ibrohimov, A. A. M. O. G. L., & Nechaeva, E. V. (2022). XALQARO INVESTITSIYA HUQUQIDA MILLIY REJIM VA ENG QULAY SHARTLAR REJIMI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(2), 414-425.
6. Ibrohimov, A. A. O., Koryogdiyev, B. U. O., & Tojiboyev, S. Z. (2022). KORPORATIV NIQOBLARNI OLIB TASHLASH KONSEPSIYASI VA UNI O'ZBEKISTON KORPORATIV HUQUQIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 1068-1082.
7. O'G'Li, A. A. M. (2022). KORPORATSIYA USTAV KAPITALI FUNKSIYALARI VA UNGA OID MILLIY QONUNCHILIK NORMALARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. Academic research in educational sciences, 3(8), 109-113.
8. Azimjon, I. (2022). ZARAR-YURIDIK SHAXS ISHTIROKCHILARI VA BOSHQARUV ORGANLARI FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIGINING ZARURIY SHARTI SIFATIDA.

9. N.F.Imomov, D.N.Babajanova. “Хорижий мамлакатлар fuqarolik huquqi:Umumiy tavsif (ayrim мамлакатлар misolida). Ilmiy-ommabop risola. Toshkent.:2018.- 26-36 bet
10. Е.А.Суханов. РОССИЙСКОЕ ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. УЧЕБНИК. Москва.:2011.- стр 51
11. Абрамова Е.Н, Аверченко Н.Н, Арсланов К.М и др. ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО .Учебник.- Москва.:2020.- стр 641-642
12. Akhrorkulov A. Non-Profit Organizations: Legislation Reform And Law Enforcement Practice //The American Journal of Political Science Law and Criminology. – 2020. – Т. 2. – №. 10. – С. 129-134.
13. Гулямов, С., & Ахроркулов, А. (2022). НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТЛАР ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: МИЛЛИЙ ВА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), 1029-1041.